

MINTAQALAR INVESTITSION JOZIBADORLIGINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA UNING HUDUDIIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Olimjanov Islomjon Odiljon o'g'li
"University of Business and Science"
rektor maslahatchisi

Annotatsiya. Maqolada mintaqalar investitsion jozibadorligining nazariy-metodologik asoslari va uning hududiy rivojlanishdagi o'rni tadqiq etildi. Investitsion jozibadorlikni baholashda qo'llanilgan nazariy yondashuvlar umumlashtirildi hamda tahlilning mikro, mezo va makro darajalari tizimlashtirildi. Har bir darajaning nazariy mazmuni, baholash mezonlari va o'lchov vositalari qiyosiy tahlil qilindi. Hududiy raqobatbardoshlik, biznes muhiti va investitsiyalarni tartibga solish ko'rsatkichlarining metodologik xususiyatlari ochib berildi. O'zbekistonning investitsiya ko'rsatkichlari asosida investitsion jozibadorlik bilan hududiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik izohlandi. Tadqiqot natijasida mintaqalarni kompleks baholashda uch darajali yondashuvdan foydalanish, baholash tizimiga raqamli infratuzilma va texnologik tayyorgarlik ko'rsatkichlarini kiritish hamda natijalardan hududiy siyosatni shakllantirishda foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: mintaq, investitsion jozibadorlik, hududiy rivojlanish, investitsiya muhiti, investitsion faollik, hududiy raqobatbardoshlik, biznes muhiti, investitsiyalar, kompleks baholash, raqamli infratuzilma.

Аннотация. В статье были исследованы теоретико-методологические основы инвестиционной привлекательности регионов и ее роль в территориальном развитии. Были обобщены теоретические подходы к оценке инвестиционной привлекательности и систематизированы микро-, мезо- и макроуровни анализа. Были сопоставлены теоретическое содержание, критерии оценки и инструменты измерения каждого уровня. Были раскрыты методологические особенности показателей региональной конкурентоспособности, деловой среды и регулирования инвестиционной деятельности. На основе инвестиционных показателей Узбекистана была рассмотрена взаимосвязь между инвестиционной привлекательностью и территориальным развитием. По результатам исследования были разработаны предложения по применению трехуровневого подхода к комплексной оценке регионов, включению показателей цифровой инфраструктуры и технологической готовности в систему оценки, а также использованию полученных результатов при формировании региональной политики.

Ключевые слова: регион, инвестиционная привлекательность, территориальное развитие, инвестиционная среда, инвестиционная активность, региональная конкурентоспособность, деловая среда, инвестиции, комплексная оценка, цифровая инфраструктура.

Annotation. The theoretical and methodological foundations of regional investment attractiveness and its role in territorial development were examined. Theoretical approaches used to assess investment attractiveness were reviewed, and the micro-, meso-, and macro-levels of analysis were systematized. The theoretical content, assessment criteria, and measurement instruments applied at each level were comparatively analyzed. The methodological features of regional competitiveness, business environment, and investment regulation indicators were identified. The relationship between investment attractiveness and territorial development was examined using investment indicators of Uzbekistan. Based on the findings, recommendations were developed for applying a three-level approach to the comprehensive assessment of regions, incorporating digital infrastructure and technological readiness indicators into the assessment framework, and using the obtained results in the formulation of regional development policy.

Keywords: region, investment attractiveness, territorial development, investment environment, investment activity, regional competitiveness, business environment, investment, comprehensive assessment, digital infrastructure.

Kirish. Mintaqalar investitsion jozibadorligini o'rganish uzoq vaqt davomida ikki mustaqil ilmiy an'ana doirasida rivojlandi. Birinchisi transmilliy kompaniyalarning joylashuv qarorlarini tushuntirishga qaratilgan bo'lib, joy ustunliklarini mustaqil determinant sifatida ajratdi [1]. Ikkinchisi iqtisodiy faoliyatning fazoviy konsentratsiyasini masshtab samarasi va transport xarajatlari orqali izohladi [2]. Ushbu ikki an'ananing yaqinlashuvi hududiy jozibadorlikning zamonaviy metodologik apparatini shakllantirdi.

Metodologik apparatning o'ziga xosligi shundaki, u turli tahlil darajalarida turli o'lchov vositalarini talab qiladi. Investorning individual qarorini tushuntiruvchi mantiq hududlar reytingini tuzish uchun yetarli emas, hududiy kompozit indeks esa alohida loyihaning tavakkalchiligini baholay olmaydi. Darajalarni aniq ajratish va ular o'rtasidagi bog'liqlikni belgilash tahlilning ishonchliligini oshiradi.

Milliy darajada ushbu masala amaliy ahamiyatga ega. Investitsiya munosabatlarining huquqiy asoslari yaxlit qonun bilan tartibga solingan [11], taraqqiyot strategiyasi hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan [12], uning yangilangan bosqichi esa vazifalarni izchil davom ettirish tartibini mustahkamlagan [13]. Tezisning maqsadi - investitsion jozibadorlik tahlilining nazariy-metodologik darajalarini tizimlashtirish va ularning hududiy rivojlanish natijasi bilan bog'liqligini asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Xalqaro ishlab chiqarish nazariyasi joylashuv komponentini egalik va internallashtirish ustunliklaridan ajratib, uni hududga tegishli mustaqil o'zgaruvchi sifatida taqdim etdi; empirik tekshiruvlar ushbu komponentning tarmoq tarkibi bilan bog'liqligini tasdiqladi [1]. Fazoviy iqtisodiyot modellari esa hududiy ustunlikning kumulyativ tabiatini ko'rsatib, mavjud iqtisodiy massaning yangi investitsiyalarni jalb etish qobiliyatini asosladi [2].

Kompozit baholash yoʻnalishi hududiy darajada eng izchil ishlab chiqilgan. Mintaqaviy raqobatbardoshlik indeksi institutlar, infratuzilma, inson kapitali, bozor hajmi va innovatsion salohiyat ustunlarini birlashtiradi hamda korxonalar bilan bir qatorda aholi manfaatlarini ham hisobga oladi [3]. Indeks natijalari hududiy siyosat qarorlari uchun empirik asos vazifasini bajaradi [4].

Regulyativ oʻlchov yoʻnalishi tartibga solish muhitini miqdoriy ifodalash imkonini beradi. Indeksning uslubiy ramkasi ulushli ishtirok chegaralari, ruxsat berish tartiblari, kadrlar boʻyicha talablar va operatsion cheklovlarni qamrab oladi [7]; maʼlumotlar ochiq bazada muntazam yangilanadi [8]; soʻnggi natijalar cheklovlar tarkibidagi oʻzgarishlarni koʻrsatdi [9]. Biznes-muhitni baholash uslubiyati esa huquqiy meʼyorlarni ularning amaliy ijrosidan alohida oʻlchash tamoyilini joriy etdi [5] va taqqoslanadigan xalqaro bazani shakllantirdi [6]. Global investitsiya oqimlaridagi tarkibiy oʻzgarishlar, xususan raqamli iqtisodiyot yoʻnalishidagi loyihalarning ortishi, metodologik apparatga yangi koʻrsatkichlar kiritish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy umumlashtirish va qiyosiy-uslubiy tahlil usullariga tayanadi. Dastlab tahlil darajalari ajratildi, soʻngra har bir daraja uchun nazariy asos, oʻlchov vositasi va manba aniq belgilandi. Darajalar oʻrtasidagi mantiqiy bogʻliqlik grafik sxema koʻrinishida ifodalandi.

Uslubiy manbalar sifatida ochiq kirish rejimidagi rasmiy hujjatlar tanlandi: hududiy raqobatbardoshlik indeksining ishchi materiali [3], biznes-muhitni baholash qoʻllanmasi [5] va tartibga solish cheklovlari indeksining metodologik ramkasi [7]. Milliy empirik kontekst rasmiy statistik axborot asosida shakllantirildi [14].

Tahlil va natijalar. Tahlil darajalarining qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan. Har bir daraja oʻz nazariy asosiga va unga mos oʻlchov vositasiga ega boʻlib, ular bir-birini almashtirmaydi, balki toʻldiradi.

1-jadval

Mintaqalar investitsion jozibadorligini tahlil qilishning metodologik darajalari¹³⁴

Metodologik daraja	Nazariy asos	Oʻlchov vositasi	Manba
Mikrodaraja: investor qarori	Xalqaro ishlab chiqarishning eklektik nazariyasi; joy ustunliklari konsepsiyasi	Joy ustunliklari boʻyicha qiyosiy baho	[1]
Mezodaraja: fazoviy tuzilma	Oʻsuvchi daromadlilik va agglomeratsiya nazariyasi	Markaz-periferiya va konsentratsiya modellari	[2]
Mezodaraja: kompozit baho	Hududiy raqobatbardoshlik konsepsiyasi	EU Regional Competitiveness Index 2.0 ustun tuzilmasi	[3]
Makrodaraja: tartibga solish	Institutsional iqtisodiyot va regulyativ ochiqlik nazariyasi	FDI Regulatory Restrictiveness Index (22 tarmoq, 4 toifa)	[7]

¹³⁴ Manba: [1], [2], [3], [5] va [7] manbalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Makrodaraja: biznes-muhit	Regulyativ sifat va davlat xizmatlari konsepsiyasi	B-READY uch ustunli va oʻn mavzuli metodologiyasi	[5]
------------------------------	---	--	-----

1-jadvalning uslubiy xulosasi quyidagicha: mintaqaning investitsion jozibadorligini yaxlit baholash uchun uch daraja maʼlumotlarini birlashtirish talab etiladi. Mikrodaraja loyiha tavakkalchiligini, mezodaraja hududiy raqobat ustunligini, makrodaraja esa tartibga solish muhitining umumiy ochiqqligini ifodalaydi. Bir darajadagi yuqori koʻrsatkich boshqa darajadagi zaiflikni qoplamaydi.

Nazariy asosdan amaliy natijaga oʻtish ketma-ketligi 1-rasmda taqdim etilgan. Sxema metodologik apparatning yakuniy vazifasi hududiy rivojlanish koʻrsatkichlarini yaxshilash ekanini koʻrsatadi.



1-rasm. Nazariy asosdan hududiy rivojlanish natijasigacha boʻlgan metodologik zanjir¹³⁵

Milliy statistik maʼlumotlar taklif etilgan zanjirning amaliy ifodasini beradi. 2023-yilda respublika boʻyicha asosiy kapitalga 352,1 trln soʻm investitsiya oʻzlashtirilib, oʻsish surʼati 122,1 foizni tashkil etdi; toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar hajmi 84,3 trln soʻmga yetdi va umumiy hajmdagi ulushi 24,0 foizni tashkil qildi [14]. Investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 161,5 trln soʻm, qurilish-montaj ishlariga 160,5 trln soʻm yoʻnaltirildi [14]. Ushbu nisbat hududiy rivojlanish natijasining ikki tarkibiy manbasini - ishlab chiqarish quvvatlari va infratuzilma obyektlarini - yaqqol koʻrsatadi.

Metodologik apparatning hududiy rivojlanishdagi oʻrni uch vazifada namoyon boʻladi. Birinchi vazifa diagnostik xarakterga ega: baholash tizimi hududning kuchli va zaif tomonlarini aniq qayd etadi. Ikkinchi vazifa ustuvorliklarni tanlashga oid: aniqlangan zaif boʻgʻin hududiy dasturlarning moliyalashtirish obyektiga aylanadi. Uchinchi vazifa monitoring bilan bogʻliq: bir xil uslubiyat

¹³⁵ Manba: [1], [2], [3] va [5] manbalaridagi uslubiy qoidalar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

asosida takrorlanuvchi baholash siyosat samaradorligini vaqt kesimida o'lchash imkonini beradi [3] va [5].

Uch darajali yondashuvning yana bir uslubiy afzalligi natijalarning izohlanuvchanligida namoyon bo'ladi. Kompozit indeks yagona raqam berganda hududiy boshqaruv organi qaysi yo'nalishda harakat qilishni aniq bilmaydi; darajalar bo'yicha ajratilgan baho esa har bir ko'rsatkichni aniq boshqaruv qaroriga bog'laydi. Mikrodaraja natijalari loyihalarni qo'llab-quvvatlash shakllarini, mezodaraja natijalari infratuzilma va kadrlar dasturlarini, makrodaraja natijalari esa tartib-taomillarni soddalashtirish yo'nalishlarini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi [3] va [7].

Xulosa. Tadqiqot quyidagi xulosalarga olib keldi. Mintaqalar investitsion jozibadorligining nazariy-metodologik asosi uch darajali tuzilishga ega bo'lib, har bir daraja mustaqil nazariy negiz va o'lchov vositasiga tayanadi. Darajalar o'rtasida to'ldiruvchilik munosabati amal qiladi, shuning uchun yaxlit baho faqat ularning birgalikda qo'llanishi orqali shakllanadi. Metodologik apparatning yakuniy vazifasi hududiy rivojlanish natijalarini yaxshilashdan iborat.

Amaliy takliflar quyidagicha shakllantirildi. Mintaqalar bo'yicha uch darajali baholash tizimini joriy etish tavsiya etiladi; uning mezo qatlami hududiy raqobatbardoshlik indeksining ustun mantiqiga [3], makro qatlami esa biznes-muhitni baholashning ikki qatlamli yondashuviga [5] asoslanishi mumkin. Baholash natijalarining muntazam e'lon qilinishi hududiy siyosat qarorlarining asoslanganligini oshiradi [4].

Baholash ko'rsatkichlari tarkibiga raqamli infratuzilma va texnologik tayyorgarlik bo'yicha yangi elementlarni kiritish maqsadga muvofiq; global investitsiya oqimlaridagi tarkibiy o'zgarishlar ushbu yo'nalishning ahamiyatini oshirmoqda [10]. Tartibga solish tartib-taomillarini soddalashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish esa makrodarajadagi ko'rsatkichlarni yaxshilashning ishonchli vositasi bo'lib qolmoqda [9].

Keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish sifatida uch darajali baholash tizimini O'zbekiston mintaqalari misolida hisoblash va natijalarni investitsion faollik ko'rsatkichlari bilan qiyoslash belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dunning, J. H. Toward an Eclectic Theory of International Production: Some Empirical Tests // Journal of International Business Studies. - 1980. - Vol. 11, No. 1. - P. 9-31. <https://doi.org/10.1057/palgrave.jibs.8490593>

2. Krugman, P. Increasing Returns and Economic Geography // Journal of Political Economy. - 1991. - Vol. 99, No. 3. - P. 483-499. <https://ideas.repec.org/a/ucp/jpolec/v99y1991i3p483-99.html>

3. Dijkstra, L., Papadimitriou, E., Cabeza Martinez, B., De Dominicis, L., Kovacic, M. EU Regional Competitiveness Index 2.0 - 2022 edition // European Commission, Working Papers. - Brussels, 2023. https://ec.europa.eu/regional_policy/information-sources/publications/working-papers/2023/eu-regional-competitiveness-index-2-0-2022-edition_en

4. European Commission. EU Regional Competitiveness. - Brussels: DG REGIO. https://ec.europa.eu/regional_policy/information-sources/maps/regional-competitiveness_en
5. World Bank. Business Ready Methodology Handbook. First Edition, October 2024. - Washington, DC, 2024. <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/357a611e3406288528cb1e05b3c7dfda-0540012023/original/B-READY-Methodology-Handbook.pdf>
6. World Bank Group. Business Ready 2024. - Washington, DC: World Bank, 2024. <https://www.worldbank.org/en/businessready/publications-2024>
7. OECD. OECD FDI Regulatory Restrictiveness Index: Methodological Framework. - Paris: OECD Publishing, 2024. <https://doi.org/10.1787/6491e99d-en>
8. OECD. FDI Regulatory Restrictiveness Index. - Paris: OECD. <https://www.oecd.org/en/topics/sub-issues/sustainable-investment/fdi-regulatory-restrictiveness-index.html>
9. OECD. OECD FDI Regulatory Restrictiveness Index 2024: Key Findings and Trends // OECD Business and Finance Policy Papers, No. 93. - Paris: OECD Publishing, 2025. <https://doi.org/10.1787/88e61362-en>
10. UNCTAD. World Investment Report 2025: International Investment in the Digital Economy. - Geneva: United Nations, 2025. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2025>
11. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O‘RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuni. - LexUZ. <https://lex.uz/docs/-4664142>
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O‘zbekiston - 2030" strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. - LexUZ. <https://lex.uz/docs/-6600413>
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.Mirziyoyevning 2023 yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>
14. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar: 2023-yil yanvar-dekabr. - Toshkent, 2024. https://stat.uz/img/press-relizlar/investitsiya_uzb_23_01.pdf